



O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA AKTIVLAR SIFATINI OSHIRISH VA ULARNI TASNIFLASHNING ZAMONAVIY CHORA- TADBIRLARI

Xojibekova Zilola Shavkat qizi

TDIU, "Bank hisobi va auditi" kafedrası katta o'qituvchisi

xojibekovazilola@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu tezis O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash hamda ularni yo'qotishlarga qarshi himoya vositalariga tegishli. Unda bank aktivlarining beshta asosiy darajasi - standart, substandart, qoniqarsiz, shubhali va umidsiz aktivlar hamda ular bo'yicha ajratiladigan stavkalari monitoring tahlil qilingan. Zamonaviy risk-menejment talablaridan kelib chiqqan holda tijorat banklarida aktivlarni nazorat qilish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: *tijorat banklari, aktivlar sifati, aktivlarni tasniflash, risk-menejment, kredit riski, restrukturizatsiya, raqamli skoring.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi bank-moliya tizimini transformatsiya qilish va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi ularning aktivlari sifati va ushbu aktivlarni samarali boshqarish tizimiga bevosita bog'liqdir. Bank aktivlarining diversifikatsiyalashgani hamda daromad keltiruvchi qismining yuqoriligi uning likvidlik va rentabellik ko'rsatkichlarini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Markaziy bank boshqaruvining me'yoriy hujjatlariga, xususan "**Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom**" (Adliya vazirligida 2015-yil 14-



iyulda 2696-son bilan ro'yxatga olingan hamda 2024-yil 20-maydagi 2696-4-sonli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan) talablariga muvofiq, tijorat banklarida aktivlarni xavf-xatar darajasiga ko'ra to'g'ri tasniflash birinchi darajali masaladir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bank tizimidagi raqamlashtirish jarayonlariga qaramay, kredit riskining oshishi hamda aktivlarni qayta tasniflash mexanizmlarida ba'zi amaliy murakkabliklar saqlanib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2696-4-sonli Nizomiga ko'ra, tijorat banklarining aktivlari risk darajasi va ularning qaytarilish imkoniyatidan kelib chiqib **5 ta asosiy toifaga** bo'linadi va ular bo'yicha tegishli tartibda zaxiralar shakllantiriladi:

1. **Standart aktivlar:** Qarz oluvchining moliyaviy ahvoli barqaror, qarzlarning o'z vaqtida to'lanishiga shubha bo'lmagan hamda muddati o'tgan qarzdorligi bo'lmagan aktivlar.
2. **Substandart aktivlar:** Qarz oluvchida moliyaviy qiyinchiliklar sezilayotgan, biroq to'lov qobiliyatini tiklash imkoniyatiga ega bo'lgan va 30 kundan 90 kungacha kechiktirilgan aktivlar.
3. **Qoniqarsiz aktivlar:** Qarz oluvchi tomonidan shartnoma majburiyatlari bajarilmasligi natijasida yo'qotishlar xavfi mavjud bo'lgan hamda 90 kundan 180 kungacha kechiktirilgan kreditlar.
4. **Shubhali aktivlar:** Qaytarilish ehtimoli juda past, biroq garov ta'minoti yoki boshqa omillar sababli hali to'liq unumsiz deb hisoblanmagan (180 kundan 360 kungacha kechiktirilgan) aktivlar.
5. **Umidsiz aktivlar:** Qaytarilish imkoniyati mutlaqo bo'lmagan va bank balansidan zaxiralar hisobidan chiqarilishi lozim bo'lgan (360 kundan ortiq kechiktirilgan) aktivlar.

1-Jadval. Bank aktivlari toifalari va ularga ajratiladigan zaxiralar stavkasi (O'zR MB 2696-4-sonli Nizomiga muvofiq)



Aktivlar toifasi	Sifat ko'rsatkichi va xavf darajasi	Yaratilishi bo'lgan stavkasi (%) lozim zaxira
Standart	Risk mavjud emas, to'lovlar o o'z vaqtida kelib tushadi	1%
Substandart	Potensial risk mavjud, to'lovlar kechikishi boshlangan	10%
Qoniqarsiz	Yuqori risk, moliyaviy ko'rsatkichlar yomonlashgan	25%
Shubhali	Yo'qotish ehtimoli o'ta yuqori	50%
Umidsiz	Aktiv amalda yo'qotilgan, qaytarish imkoniyati nolga teng	100%

Ilmiy adabiyotlarda bank aktivlarining unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar **ichki (mikroiqtisodiy)** va **tashqi (makroiqtisodiy)** omillarga ajratiladi.

Nizomning 2024-yildagi 2696-4-sonli o'zgartirishlariga binoan, aktivning sifati "qoniqarsiz" yoki "shubhali" deb tasniflanganidan so'ng to'lovlar grafigi tiklansa va qarz oluvchining holati yaxshilansa, u darhol "standart" toifaga o'tkazilmaydi, balki bosqichma-bosqich "substandart" toifasiga qayta tasniflanishi belgilanib, risk-menejment talablari kuchaytirildi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston tijorat banklarida aktivlar samaradorligi va sifatini oshirish uchun quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish lozim:

1. **Raqamli scoring va Big Data tahlilini kengaytirish:** Kredit berishdan oldingi bosqichda inson omilini kamaytirish hamda qarz oluvchilarning moliyaviy axvolini sun'iy intellekt orqali aniqroq baholash.
2. **Qayta ko'rib chiqilgan (restrukturizatsiya qilingan) aktivlar ustidan monitoringni kuchaytirish:** MBning 2696-4-sonli Nizomi talablariga asosan, shartlari ikki va undan ortiq marta qayta ko'rib chiqilgan aktivlarni alohida risk-toifasiga kiritish va ular bo'yicha o'z vaqtida zaxiralar ajratish.
3. **Nodavlat qimmatli qog'ozlar va investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish:** Bank aktivlarining asosiy qismi faqat kredit portfeliga bog'lanib qolmasligi uchun obligatsiya va fond bozori instrumentlari ulushini oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **Abdurahmonov O. K., Xoliqov A. A.** *Tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishda aktivlarni samarali boshqarish yo'llari.* // "Ekonomika i innovatsionniye texnologii" ilmiy elektron jurnali, № 4, 2025. — 112-118-b.
2. **Karimov B. Sh.** *Transformatsiya jarayonida bank aktivlari samaradorligini oshirishning konseptual yo'llari.* // "Marketing va moliya" ilmiy jurnali, Vol. 3, Issue 2, 2025. — 45-52-b.
3. **Zubonov R. N.** *Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va risk-menejment tizimini takomillashtirish.* — Toshkent: Moliya va bank ishi nashriyoti, 2024. — 184-b.
4. **O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.** *Tijorat banklarining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari bo'yicha yillik statistik to'plami.* 2025.